“ADOLAT”
MILLIY HUQUQIY AXBOROT MARKAZI
Guvohnoma № 636478
Litsenziya C-5669732

“HUQUQ va BURCH+” —
«ПРАВО и ДОЛГ+» —
"RIGHT and DUTY+"
Journal home page:
https://adolatmarkazi.uz/magazine/electron?id=372

2026-yil
6-son
iyun
ISSN 3093-8546



Mamlakatimizda qadimgi davrlarda va islom huquqida jazo tayinlash asoslarining o‘ziga xos xususiyatlari tahlili

Qunduz Rozimova,
Toshkent davlat yuridik universiteti
o‘qituvchi
e-mail: umiulugbek@gmail.com

Аннотация. ushbu maqolada yurtimizda qadimgi davrlarda va islom huquqida jazo tayinlash asoslariga oid normalar tahlil qilingan. Maqolada huquqshunos va tarixchi olimlarning mavzuga oid manbalaridan foydalangan holda qadimgi davrlarda va islom huqudida jazo tayinlash asoslariga oid masalalar tahlil qilingan. Tahlil jarayonida muallif tomonmidan har bior davrga xos bo’lgan xususiyatlar ochib berishga harakat qilingan

Калит сўзлар. jinoyat huquqi, jinoyat, jazo, jazo tayinlash, og’irlashtiruvchi va yengillashtiruvchi holatlar, islom huquqi, ijtimoiy xavflilik darajasi, qonun, Temur tuzuklari, adolat

Аннотация. в данной статье анализируются нормы, определяющие основания для назначения наказаний в древности и в исламском праве нашей страны. Анализируются вопросы, связанные с основаниями для назначения наказаний в древности и в исламском праве, с использованием источников правоведов и историков по данной теме. В процессе анализа автор стремится выявить особенности, присущие каждому периоду.

Ключевые слова. уголовное право, преступление, наказание, вынесение приговора, отягчающие и смягчающие обстоятельства, исламское право, уровень социальной опасности, закон, решения из книги "Тимур тузуклари", правосудие

Annotation. this article analyzes the norms of the basis for imposing punishment in ancient times and in Islamic law in our country. The article analyzes issues related to the basis for imposing punishment in ancient times and in Islamic law using the sources of legal and historical scholars on the subject. In the process of analysis, the author tried to reveal the features inherent in each period.

Keywords. : criminal law, crime, punishment, sentencing, aggravating and mitigating circumstances, Islamic law, level of social danger, law, Timur's

tuzuks law, justice

Mamlakatimiz o‘zining shonli va boy tarixida jinoyat uchun jazo tayinlash asoslariga oid qoidalar azaldan mavjud bo‘lgan. Tarixiy manbalarning tahlili mamlakatimiz hududida qadimgi davrda va islom huquqida ham jazo tayinlashning umumiy asoslari bilan bog’liq qoidalar amal qilganligidan dalolat berib, bu yurtimizda jinoyat huquqi va jazo tayinlash masalalarining boy tarixiy asoslariga egaligini, qadim zamonlardan boshlab jinoyat qilgan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda adolat mezonlari hamda insoniylikka yuksak darajada e’tibor qaratilganligidan guvohlik beradi.

Qadimgi davrlarda jinoyat va jazo haqidagi masalalar ilk yozma manbalardan biri hisoblangan “Avesto”da yoritib o‘tilgan. bo‘lib, Z.Muqimov o‘z asarlarida “Avesto”da jazo “diniy-etnik qoidalarga bo‘ysundirish maqsadidagi harakat” ma’nosida qo‘llanilib, xatti-harakat uchun to‘lovni anglatganini qayd etib, jazo sinab ko‘rish, diniy-etnik qoidalar asosida olib borilgan degan xulosaga keladi [1].

“Avesto”da jazo tayinlashga oid qoidalarga nazar tashlar ekanmiz, unda asosan jinoyat sodir qilgan barcha insonlarga bir xil jazolar nazarda tutilganligiga guvoh bo‘lishimiz mumkin. Shu bilan birga, “Avesto”da ayrim jazolarni yengillashtiruvchi holat sifatida muqobil jazo bilan almashtirish mumkinligi belgilangan. Jumladan, “Avesto”da atrof-muhitni, yer, suv, havoni ifloslantirish jinoyat hisoblanib, bunday jinoyatni sodir qilganlik uchun 400 qamchi urib jazolash nazarda tutilgan. Bunda ushbu jazoni tan jazosi yoki boshqa majburiyat bilan almashtirish mumkin bo‘lgan. Bu esa, “Avesto”da insonni ulug‘lash g‘oyasi markaziy o‘rin egallaganligidan dalolat beradi. “Avesto” da jinoyat va jazo masalalarida hatto sodir etilgan jinoyat sub’ekti sifatida inson bilan bir qatorda hatto hayvonlarni ham jazolash mumkin bo‘lgan.

Ushbu manbada jinoyat sodir etishda asosan aybning qasd shakli ko‘proq inobatga olinib, og‘irroq jazo tayinlash nazarda tutilgan. Qoida tariqasida jinoyatlar quyidagi jinoyatlarga ajratilgan:

shaxsga qarshi jinoyatlar;
mulkka qarshi jinoyatlar;
oilaga qarshi jinoyatlar;
dinga qarshi jinoyatlar [2].

Dastlabki kodekslardan biri bo‘lgan Xammurapi qonunlari, miloddan avvalgi 1754-yil qadimgi Bobilda yaratilgan bo‘lib, ushbu kodeks jarimadan tortib, jismoniy jarohat, shuningdek o‘limgacha bo‘lgan turli xil jazolar qo‘llashni nazarda tutgan. Jazo nafaqat jinoyatchilikni oldini olish, balki ommaviy tomosha shakli sifatida ham qo‘llanilib kelingan.

Turk hoqonligi davrida o‘ziga xos “Jinoyat va jazo” qonunlar to‘plami mavjud bo‘lgan bo‘lib, jazo tayinlash bilan bog‘liq masalalar ushbu manba bilan tartibga solingan. Manbalarda ushbu qonunlar to‘plamining ibodatxonada saqlanganligi, jinoyat sodir etgan

shaxslarga nisbatan ushbu manbaga asosan jazo tayinlanganligi, jazolarning shafqasiz bo‘lganligi, xususan og‘ir jinoyatlar uchun butun bir urug‘ uncha og‘ir bo‘lmaganlari uchun jinoyatchining o‘zi qatl etilganligi ta’kidlangan [3].

Shu bilan birga, turk hoqonligi davridagi “Jinoyat va jazo” qonunlar to‘plami jazo tizimida qabila, urug‘ yoki jamoaning javobgarligi instituti mavjud bo‘lganligini, jazo qo‘llashda asosiy e’tibor keltirilgan zararni qoplatishga qaratilganligi bilan ajralib turgan.

Mamlakatimiz hududi mo‘g‘ullar tomonidan bosib olingandan so‘ng jinoyat va jazo masalalari 1206 yilda qabul qilingan hamda mo‘g‘ul davlatchiligida amalda bo‘lgan Yaso qonunlari bilan tartibga solingan.

Manbalarda keltirilishicha, mo‘g‘ullar hukmronligi davrida amalda bo‘lgan Yaso qonunlarida jinoyatlar uchun shafqasiz jazolar tayinlangan. Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiy Yaso qonunlarida jazo tayinlash ijtimoiy va milliy tengsizlikka asoslanganligini ta’kidlar ekan, o‘z fikrini bir begunoh mo‘g‘ulning o‘limi uchun xun bahosi 40 bolish (tanga) kumush miqdorni tashkil etsa, bu miqdor xitoylik o‘limi uchun bir eshakning bahosiga teng bo‘lganligi bilan asoslagan [4].

Islom huquqida jazo tayinlashning umumiy asoslari sifatida alohida muayyan holatlar ko‘rsatib o‘tilmasada jinoyatlarni tasniflash orqali tayinlanadigan jazolarga aniqlik kiritilishi nazarda tutiladi [5]. Tadqiqotchilar jinoyat va jazo haqida so‘z ketganda islom huquqida jinoyatning tushunchasi mavjud emasligi, suiqasd, ishtirokchilik, aybni yengillashtiradigan va og‘irlashtiradigan holatlar kabi institutlar yaxshi ishlab chiqilmaganligini ta’kidlaydilar [6].

Islom ta’limotida jinoyatga islom asoslarini, xususan uning huquqiy tamoyillari va me’yorlarini, besh asosiy qadriyat hisoblangan din, hayot, aql, naslni davom ettirish va mulkni himoya qilishga qaratilgan huquqbuzarliklar yoki gunohlar sifatida tushuniladi [7].

Taniqli islom huquqshunos olimi Al Mavardiyning fikricha, Olloh ta’qiqlaydigan va jazolaydigan har qanday qilmishni yuridik ma’nodagi huquqbuzarlik sifatida tushunish mumkin [8].

Islom huquqi tadqiqotchisi R.Sharl huquqbuzarliklarni uch toifaga ajratib tasniflar ekan tayinlanadigan jazolar bevosita huquqbuzarlikning ana shu toifadan qaysi biriga mansubligi bilan bog‘liq degan xulosaga keladi.

Tadqiqotchining fikricha, birinchi toifaga o‘g‘rilik yoki talonchilik bilan bog‘liq bo‘lmagan jinoyatlar kirib, ular jumlasiga odam o‘ldirish, ehtiyotsizlik orqasida badanga shikast etkazish kabilarni keltirish mumkin. Bu kabi jinoyatlarni sodir etganlik uchun aybdor yoki uning qarindoshlari tomonidan xun haqi yoki tovon pulining to‘lanishi nazarda tutiladi [9].

Olim ikkinchi toifaga kiradigan jinoyatlarga Olloh belgilagan chegaradan chetga chiqish va Ollohga qarshi jinoyatlar, aralash

jinoyatlar tarzida ta’riflaydi. Ushbu guruhga mansub jinoyatlarga dindan qaytish, zino, erga (xotinga) xiyonat qilish, shirk keltirish, ichkilikbozlik, erlik huquqidan foydalanishga asos bo‘luvchi jinoyatlar (yolg‘ondan zinoda ayblash) kabilar kirishini keltirib o‘tadi. Mazkur jinoyatlar uchun nazarda tutilgan jazolar ham o‘zining qattiqligi bilan ajralib turgan. Xususan, ushbu guruhga mansub jinoyat sodir qilganlarga ko‘pincha og‘ir jazolar jumladan, kaltaklash yoki o‘lim jazolari tayinlangan.

Uchinchi guruhga ijtimoiy tuzumga tajovuz sifatida qaralgan barcha jinoyatlar kirgan. Mazkur toifadagi jinoyatlar uchun odatda mulkka hibs solish va huquqbuzarning boshiga salla o‘rash huquqidan mahrum qilish kabi jazolar qo‘llanilgan.

M.Rajabovaning islom huquqini jinoyat huquqi bilan aloqador fikrlarini o‘rganadigan bo‘lsak, ularni har biri zamonaviy jinoyat huquqiga o‘xshash bo‘lgan jinoyat tarkibidan tashkil topganligi, jinoyat ob’ekti shariat qonunlarida umumiy ob’ekt sifatida din va davlat asoslari, nomusi, mulkning turli shakllari, shaxsning hayoti, sog‘lig‘i, qadr-qimmati, xususiy mulklar, jamoat tartibi va xavfsizligi, odil sudlov asoslari va boshqa qator ijtimoiy munosabatlarni tashkil etganligi, diniy qoidalar, savdo-sotiq tartib-qoidalari, shuningdek, jinoyatlarni to‘g‘ri kvalifikasiya qilish va adolatli jazo tayinlashda jinoyat predmeti ham alohida ahamiyat kasb etganligini, xususan, o‘zgalarning mulkini talon-toroj qilishni o‘g‘rilik deb baholashda talon-toroj qilingan mulk (ashyo) turi va miqdori aniq belgilanishi talab etilganligini ta’kidlaydi [10].

Yuqoridagilardan kelib chiqib, islom huquqida jazo tayinlashda asos sifatida jinoyatlarning quyidagi uch toifasiga qaralishini ta’kidlash joiz:

- qasos yoki diya bilan jazolanadigan jinoyatlar;
- jazo tariqasida hadd tayinlanadigan jinoyatlar;
- ta’sirga tortiladigan engil turdagi jinoyatlar [11].

Shu bilan birga, manbalarda jazo tayinlashda qilmishning og‘irligi va aybdorning shaxsiga qarab, ta’zir chorasi sifatida jamoatchilik izzasi, qozi yoki hukmdorning ogohlantirishi, tartibga soluvchi suhbat va boshqa ta’sir choralari qo‘llanilishi mumkinligi ham ta’kidlanadi [12].

Boshqa bir tadqiqotchilarning fikricha, islom huquqida jazo tayinlashda jazolar jazolashning davlatgacha bo‘lgan usullari bilan bir qatorda etarli darajada ishlab chiqilgan yo‘naltirilgan huquqiy repressiyani o‘zida aks ettiradi.

Bunda islom huquqida jinoyatlar uch guruhga ajratilishini, birinchi guruhga Olloh huquqlariga tajovuz qilish bilan bog‘liq jinoyatlar, ikkinchi guruhga butun musulmon jamiyatiga emas, alohida shaxslarning huquqlariga tajovuz qiluvchi g‘ayriqonuniy harakatlar va uchinchi guruhga xalifalikni tashkil etish davrida jazolashga loyiq emas deb topilgan harakatlar tashkil qilishini ta’kidlaydilar. Shu bilan birga, yuqoridagi qayd etilgan jinoyatlardan dastlabki ikki guruhidagi jazolar qat’iy belgilangan va qattiq jazolanadigan jinoyatlar sifatida e’tirof etadilar.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

Bundan ko‘rinib turibdiki, Olloh huquqlariga tajovuz qilish bilan bog‘liq jinoyatlar va butun musulmon jamiyatiga emas, alohida shaxslarning huquqlariga tajovuz qiluvchi g‘ayriqonuniy harakatlarni sodir qilganlik uchun jazo tayinlashda engillashtiruvchi holat qo‘llanilmaydi.

Ta’qiqlangan, lekin jazolashga loyiq emas deb topilgan harakatlarni sodir qilganda tayinlanadigan jazolar keng turli xil va egiluvchan ekanligi bilan ajralib turishi ta’kidlanadi.

Bunda misol sifatida shariatda qotil jabrlanuvchi yoki uning qarindoshlaridan, agar ular o‘zlarining qonli qasos olish huquqlaridan voz kechsalar kompensatsiya tariqasida ashyo yoki pul berib o‘z jonini sotib olish mumkin bo‘lganligi keltiriladi.

Bundan tashqari, ayrim jazolarni tayinlash usullari turlicha ekanligi bilan ajralib turgan. Masalan, o‘lim jazosi tirigicha ko‘mish yoki cho‘ktirish kabi usullar bilan ijro etilgan. Bunda albatta bir qancha jinoyat sodir qilgan shaxslarga nisbatan og‘irroq jazo choralarini qo‘llash nazarda tutilgan. Shu bilan birga, alohida hollarda butun umrga qamash holatlari ham ko‘p qo‘llanilgan.

M.Rajabova Abu Yusufning “Xiroj” asari haqida so‘z yuritar ekan, **u**ning fikriga ko‘ra, mazkur asar islom huquqi, ayniqsa shariatda jinoyat va jazo masalalarini chuqurroq tahlil qilishda ilmiy-nazariy jihatdan qo‘l kelishi turli huquqbuzarliklarning oldini olish, ayniqsa jinoyatchilikka qarshi kurashish masalalari, salbiy holatlarning oldini olish, jazolashdan asosiy maqsad jamiyatdagi har qanday ko‘rinishdagi axloqsizliklarga yo‘l qo‘ymaslik, zarur hollarda esa ularni bartaraf etish chora-tadbirlarini ishlab chiqish, jamiyatda inson huquqlarining adolat va tenglik prinsipi asosida amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan ijobiy g‘oyalar, huquqiy qarashlar, xulosalar, qonun-qoidalar aks ettirilganini ta’kidlaydi.

Islom huquqining asosiy manbasi bo‘lgan Qur’oni Karimda jinoyatlar ikki guruhga bo‘linib, ya’ni qasddan sodir etiladigan va qasdga o‘xshash sodir etiladigan jinoyatlardir. Qasddan sodir etiladigan jinoyatlar uchun qattiqroq jazo tayinlash nazarda tutilib, agar shaxs qasddan odam o‘ldirsa, uning xunini to‘lashi shart bo‘lib hisoblangan. Ehtiyotsizlik natijasida esa, bilmasdan o‘ldirishning kafforati – bir mo‘min qulni ozod etish bo‘lgan. Agar buni iloji bo‘lmasa, ikki oy davomida muntazam ro‘za tutish yoki oltmish kishini to‘yg‘azish shart bo‘lgan. Agar tovon haqi to‘lashi kerak bo‘lsa, u merosdan ham mahrum bo‘lgan.

Al-Buxoriy hadis to‘plamlarida jinoyat va jazo masalalariga ham to‘xtalib o‘tilgan bo‘lib, og‘ir jinoyatlar uchun Payg‘ambarimiz (s.a.v) tomonidan qo‘llanilgan jazolar to‘g‘risida ma’lumotlar keltiriladi. Masalan: bir kambag‘al kishi boy odamni ehtiyotsizlik natijasida o‘ldirib qo‘ygan, natijada boy xunini talab qilgan, lekin nochor odamning uni xunini to‘lashga qurbi etmagan va adolat so‘rab Payg‘ambarga borishganida Payg‘ambar ta’zir jazosini tayinlab, unga nisbatan ikki oy moboynida ro‘za tutishga hukm etganligi haqida manbalarda keltiriladi [13]. Qur’onda had va qasos jazolari belgilangan bo‘lsa, sunnatda ularga oydinlik kiritib engil turdagi

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

jinoyatlarga ta’zir jazosi tayinlangan.

Jazo tayinlashning umumiy asoslari bilan bog‘liq masalalarni qadimgi milliy olimlarimizning asarlarida ham uchratishimiz mumkin. Chunonchi, mashhur faylasuf Abu Nasr Forobiy jazo tayinlash asoslari borasida o‘zining qarashlarini bayon etar ekan, jinoyat uchun jazo tayinlashda asosiy e’tiborni qilmishning jamiyat uchun ijtimoiy xavflilik darajasiga, keltiradigan zarariga qaratish adolatdanligini, zero, qonunlar ijrosini kuzatuvchilarning asosiy maqsadi ham adolatligini, garchi adolatni qaror toptirish uchun tayoq orqali kaltaklash, qatl kabi usullar qo‘llansada, ular adolatni qaror toptirishda o‘z-o‘zicha ajoyib usullar hisoblanmasligini ta’kidlab o‘tadi [14].

Yana bir qimmatli manba hisoblangan «Temur tuzuklari»da ham boshqa masalalar bilan bir qatorda jazo tayinlash masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Unda mamlakatda jinoyat sodir qilganlarga nisbatan qo‘llaniladigan jazo har tomonlama puxta ishlab chiqilishi, xususan, jazo tayinlashda shoshma-shosharlikka yo‘l qo‘yilmasligi haqida so‘z boradi.

Tuzukda o‘g‘illar, nabiralar, qavm-qarindoshlar, amirlar va vazirlarni jazolash yo‘li bilan saltanatda intizom saqlash haqida shunday deyiladi: “Saltanat saroyining ishonchli va e’tiborli kishilari saltanat ishlarida xiyonat esalar va saltanatni ag‘darishga jazm qilgan bo‘lsalar ham, ularni o‘ldirishga shoshilmasinlar. Avvalambor, ularni ayblovchi va xabar etkazuvchilarning kimligini tekshirib ko‘rsinlar. Qoralovchilar da’volarini rost-yolg‘onligini mohaq toshi (kumush va oltinning tozaligini aniqlab beradigan qora tusli bir tosh)ga urib sinab ko‘rsinlar. Chunki ko‘p hollarda hasadchilar va g‘iybatchilar yo ko‘rolmay yoki ta’magirlik bilan yolg‘on to‘qib, uni chinday qilib ko‘rsatadilar va maqsadlariga erishadilar. Qishloq oqsoqoli va shahar ulug‘lari kichikroq darajadagi odamga zulm qilsalar, o‘sha zulmga yarasha, har kimning ko‘tarishicha jarima solsinlar. Agar dorug‘alar va hokimlar xalqqa jabr-zulm etib, ularni xarob qilgan bo‘lsalar, ishlariga loyiq jazo berilsin. Biron kimsaning gunohi isbotlangandan keyin undan jarima olsalar, so‘ng yana darra bilan urmasinlar. Agar darra urish bilan jazolasalar, undan jarima olmasinlar” [15].

Temuriylar davrida shariat qoidalariga asosan ish ko‘rilib, Qur’oni Karimda belgilangan tartib qoidalar asosida jazo tayinlangan. Temur tuzuklari asosan maslahatlar ko‘rinishida belgilangan bo‘lsa-da, unda asosan harbiylarga doir masalalar, ya’ni harbiy jinoyatlarga nisbatan jazo choralarini qo‘llashda qattiqqo‘llik bilan birga o‘ta adolatli yondashilganligini, masalan, harbiy jinoyatlarda qasddan xoinlik qilish davlatga qarshi jinoyat hisoblanib, bunday jinoyatga nisbatan o‘lim yoki boshqa o‘lkaga sazoiy qilish jazosi tayinlangan bo‘lsa, harbiylar ehtiyotsizlikdan biror qilmish sodir etishsa birinchi marta kechirish, ogohlantirish kabi choralar ko‘rilganligi aytib o‘tiladi [16].

Guvoh bo‘lganimizdek, dastlab jazo tayinlash bilan bog‘liq masalalarda sodir etilgan jinoyat uchun faqatgina bitta jazo

tayinlanishiga alohida urg‘u berilgan. Shu bilan birga, jazo tayinlash bilan bog‘liq masalalar turli davrlarda faqat islom huquqiga muvofiq amalga oshirilgan.

Buxoro amirligi, Qo‘qon va Xiva xonliklari davrida davlat boshqaruvi shariat qonunlari asosida amalga oshirilgan. O‘zbek xonliklari davrida ikki turdagi sudlar, ya’ni qozilik sudi va beklar sudi bo‘lgan. Qozilik sudi o‘troq xalqning jinoiy va fuqaroviy ishlarini shariat qonunlari asosida ko‘rgan bo‘lsa, beklar sudi esa ko‘chmanchi xalqning ishlarini oddiy huquq, ya’ni kundalik turmushdagi yurish turish odatlarini qo‘llagan tarzda hal qilgan.

Demak, guvoh bo‘lganimizdek islom huquqida bevosita jazo tayinlashning umumiy asoslari keltirib o‘tilmagan bo‘lsada, shariatga muvofiq sodir etilgan jinoyatning holatidan kelib chiqib jazo tayinlashda jazo chorasini engillashtirish yoki og‘irlashtirish amaliyoti mavjud bo‘lgan va bunday amaliyot bevosita huquqni qo‘llovchining o‘z ixtiyoriga havola etilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Z.Muqimov. O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: “Adolat”, 2003 y. – 35 b.

2.H.Boboev, T.Dustjonov, S.Hasanov “Avesto” – Sharq halqlarining bebaho yodgorligi. – Toshkent: TMI, 2004. y. – B.54.

3.Н. Бичурин. Собрание сведений о народах, обитавших в Средной Азии в древние времена. 2- том, г. 2013, С.380.

4.Sharofiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. “Sharq yulduzi”, 1992, 4-son, 153-bet.

5.A.Raxmanov, A.Raxmanov. Islom huquqi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2007. - 366 B.

6.M.Xamidova O‘zbekiston davlati va huquqi tarixi. – T.: TDYU nashriyoti. 2005. – 86-b.

7.A.Raxmanov, A.Raxmanov. Islom huquqi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2007. - 365 B.

8.Ibn al-Hasan Ali ibn Muhammad ibn Habib al – Basriy al – Mavardiy. Al – Ahkom as – sultoniyya va - l – viloyat ad – diniya. Qohira, 1973. (arab tilida). – 219 b.

9.Siyosiy va huquqiy ta’limotlar tarixi: oliy o‘quv yurt.-huquqshunoslik mutaxassisligi bo‘yicha ta’lim olayotgan talabalar uchun darslik. T.: 2003.-205b.

10.M.Rajabova. Islom huquq: jinoyat va jazo: o‘quv-qo‘llanma – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. –188-193-betlar

11.M.Rajabova. Islom huquq: jinoyat va jazo: o‘quv-qo‘llanma – Toshkent: “O‘zbekiston xalqaro islom akademiyasi” nashriyot-matbaa birlashmasi, 2021. – 284 – bet

12.A.Raxmanov, A.Raxmanov. Islom huquqi: Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. – T.: TDYU nashriyoti, 2007. - 368 B.

13.Al-Buxoriy. “Hadis-Al-jome’ as – sahih”. - Toshkent: “Qomuslar bosh tahririyati”. - 1992. 4-jild. – B.290.

14.Muhiddinova F. Forobiyning huquqiy qarashlarida jinoyat va jazo masalalarining aks etishi // TDYU Axborotnomasi. 2006.–№1. – 88 b.

15.Temur tuzuklari // Forschadan A.Sog‘uniy va H.Karomatov tarj; B.Axmedov tahrir ostida/.-T.: Nashriyot-matbaa birlashmasi, 1991.-144 b.

Guvohnoma № 636478 Litsenziya C-5669732 ISSN 3093-8546

16.Salaev N.S., Bobokeldiev B.A. Harbiy jinoyatlar:tarixi, kvalifikatsiya qilish va oldini olish masalalari: huquqshunoslik o‘quv yurti talabalari, ilmiy tadqiqotchilar, o‘qituvchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun/ Salaev N.S., Bobokeldiev B.A.; O.Madalievning tahriri ostida. – Toshkent: “Adolat” nashriyoti, 2007. – 308 b.